ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI HAYOTIMIZGA TA'SIRI

Odilova Mohlaroyim Mo'minjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Kalit so'zlar: Texnologiya, fan va texnika, zaharli gaz, innovatsiya, raqamli texnologiya ijtimoiy tarmoq.

Insoniyat yaralibdiki har doim qulaylikka intilib yashaydi. Qadimda ov uchun qurol-yaroq yasagan insonlar bugungi kunga kelib aql bovar qilmas ixtirolar qilishyapti. Biz esa shunday ixtirolarga to'la hayotda ular go'yoki ular bilan birga yashayapmiz. Chunki bizning har bir yumushimizga texnologiyalar zarur. Misol uchun ertalab turib ishga, o'qishga mashinada ketamiz. Bu biz uchun qulay va vaqtimiz uchun ham foydali. Ko'p qavatli binolarda esa liftlar bor va bu yerda ham biz ularga tayanamiz. Shu bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni rivojlanishi tufayli kun bo'yi kompyuter bilan ishlash kerak bo'lgan kasblar ham ko'paymoqda. Shunga qaramasdan insonlarning avtomobillardan davomiy va uzluksiz foydalanishi inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Natijada kamharakatlilik yuzaga kelib, u miyyada qon aylanishining yomonlashishi, samaradorlikning pasayishi, bosh aylanishi, tez charchash kabi kasalliklarni yuzaga keltiriradi. Inson o'tirgan holatida umurtqa pog'onasiga tik va yurish paytiga nisbatan ikki barobar og'ir yuk tushadi. Inson olayotgan energiyasidan chiqarayotgan energiyasi davomiy ravishda kam bo'lmasligi kerak. Shuning uchun ishdan keyin uyga piyoda borish tavsiya qilinadi. Agar inson kuniga 7 8 soat o'tirgan holda ishlab yana mashinada yurishni afzal bilsa, u inson har doim harakatda bo'lgan va 3 soatdan ko'proq bir joyda o'tirmagan insonga nisbatan 15 17 yil kamroq umr ko'rish xavfi bor ekan. Solomatlik uchun, tushlikdan keyin biroz sayr qilish, taomni yaxshi hazm bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek insonni jismoniy faolligini oshirib, ko'p kasal bo'lishini oldini oladi. 15 daqiqalik yengil mashg'ulot kun davomida tetiklikni ta'minlaydi.

Avtomobillarda yurish faqat inson uchun zararli deb ayta olmaymiz, chunki mashinalardan chiqayotgan zaharli gaz atrof-muhitga ham ta'sir qiladi. Avtomobillar ajratadigan zaharli gazlar tarkibida 200ga yaqin birikmalar bo'lib, ularning aksariyat qismi zaharli gazlar hisoblanadi. Ammo ko'p insonlar bugungi kunda o'z shaxsiy mashinalaridan foydalanishni afzal biladi va bunga bir nechta sabablar bor. Birinchidan, shaxsiy mashinadan foydalanish insonlar uchun qulaylik yaratadi. Ikkinchi foydali tomoni esa vaqtni tejash uchun katta yordam beradi. Ya'ni insonlar ommaviy transportga nisbatan manzillariga ertaroq boradi, chunki ular boshqa insonlarni kutishi kerak bo'lmaydi. Bu esa zaharli gazlarni miqdori kundan kunga ortishiga sabab bo'la oladi. Zaharli gazlarni esa tabiatga katta ta'siri bor. U gaz havoni ifloslaydi, bundan tashqari, hozirgi kunda turli xil zavod va korxonalar ko'paymoqda va ulardan chiqayotgan zaharli tutunlar ham tabiatga birdek zararli hosoblanadi. Zeroki, atmosfera ikki xil yo'l bilan ifloslanar ekan. Birinchisi tabiiy va ikkinchisi sun'iy yo'llar bilan. Hozirgi vaqtda atmosfera 75% sun'iy yo'l bilan ifloslanadi. Ya'ni insoniyat manbalari tufayli. Atmosferani ifloslanishida mashinalar ta'sirida (40%) va korxonalar va zavodlar ta'sirida esa(14%) ni tashkil etadi. Bu hodisa inson salomatligi uchun xavflidir, chunki, bunday gazlar havoni ifloslanishiga olib keladi. Natijada kasalliklarni avj olishi osonlashadi va avtomobil gazlari bilan ifloslangan muhitda uzoq bo'lish organizmni umumiy holsizlanishiga olib keladi. Avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazlar bilan ifloslangan havoda nafas natijasida ,nafas olish yo'llari ,yurak kasalliklari, insult va o'pka saratoni kabi o'g'ir kasalliklar kelib chiqadi.

Afsuski, biz bu vaziyatga uzog'imizni yaqin qilayotgan mashinalar ya'ni texnologiyalar sabab bo'lyapti.

Texnologiyalar rivojini xonadonlarimizni ham to'ldirgan bir paytda ayollar endi ko'p vaqtlarini turli xil uy yumushlari uchun emas, balki o'zlarini rivojlantirish uchun

sarflashyapti. Naqadar go'zal! Ayollar texnologiyalar tufayli kir yuvish ishlarini allaqachon kir yuvish mashinalariga topshirishgan. Tez va sifatli. Uylarni tozalash uchun esa qulay bo'lgan chang yutgichlar. Aslida biz bunday texnologiyalarni ko'pini sanashimiz mumkin. Bularning barchasi zamonaviy texnologiyalarni bizga bergan mo'jizasi deb ayta olamiz. Biz ular tufayli ko'p vaqtlarimizni asrashga muvaffaq bo'ldik. O'zimizni ustimizda ishlashga va rivojlanishga yo'l ochgan bu ilm fanning taraqqiyoti. Albatta, hozirda uyda o'tirgan holda telefonlarimiz orqali ijtimoiy tarmoqdan biz ko'p bilimlar olishimiz yoki biror bir hunarni o'rganishimiz mumkin. U bizga yaratgan imkoniyatlar shu qadar kengki, biz bilim olish birga, yangiliklarni ham ijtimoiy tarmoq orqali bilishimiz mumkin. Lekin, raqamli texnologiya bizga keng tarmoqli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish imkoniyatini yaratgan bo'lishiga qaramay, unda faqatgina foydali ma'lumotlar tarqalmaydi. Shuning uchun inson aldanib qolishdan saqlanish kerak. Qo'shimcha qilolamizki, hozirda dolzarb bo'lgan muommolardan biri turli xil norasmiy saytlardan kelayotgan xabarlarga ishonmaslik zarur. Chunki, hozirtgi kunda yolg'on xabarlarga ishonish orqali o'g'irlik va firibgarlik juda ham ko'paygan. Albatta inson o'qishi, bilim olishi tufayli bunday yolg'on xabarlarga ishonmaydi va soddalik qilmaydi. Bunday muommolar bugungi kunda muhim hisoblanadi va u ham texnologiyalarning bir zararli tomoni desak mubolag'a bo'lmaydi.

Natija. Biz texnologiyalarni bir nechta foydali va zararli tomonlarini sanab o'tdik. Shunday ekan biz hayotimizdagi barcha ishlarimizni unga topshirib qo'yishimiz katta xotodir. Biz insonlar qilayotgan barcha ishimizni me'yordan oshib ketmasligini nazorat qilishimiz muhim. Yo'qsa texnologiyalar tufayli aziyat chekadigan yana o'zimiz bo'lishimiz hech gap emas. Lekin bizga bilim olishimiz va dunyoqarashlarimizni yaxshi tomonga o'zgartirishimizda texnologiyalar yordamchi bo'la oladi. You Tube tarmog'i orqali biror hunar yoki til o'rganishimiz uchun bepul darslar mavjud. Qolaversa biz online kurslar sotib olishimiz ham mumkin. Bu orqali ham yaxshi natija ko'rsatgan insonlar talaygina. Online kurs bizni yo'l uchun vaqt sarflashdan ozod qilyapti. Shunday qilib biz uyda o'tirgan holda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lyapmiz. Albatta, bu bizga texnologiyalarni bergan imkoniyatidir.

Xulosa. Sog'ligimiz uchun vaqt ajratishimiz zarur. Mashinadan holi toza havoda sayr qilishimiz bizga samaradorligimizni oshishi uchun yordamchi bo'ladi. Shahar ko'chalariga turli ko'chatlar ekishimiz orqali tabiatni muhofaza qilishimiz kerak. Agar insonlar ommaviy transportlarda yurishni o'rgana olsa, tabiat anchagina tozalanadi. Bu uchun ommaviy tranportlarni sifatini yaxshilash va qulayliklar yaratishlar zarur. Shundagina insonlar ommaviy transportlardan foydalanishi mumkin. Misol uchun, tekin Wi-Fi o'rnatilishi va transportlarni belgilangan vaqtda qatnashi insonlarni ommaviy transport vositalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayt yuz.uz
2. Sayt aniq.uz
3. Jurnal "Multidisciplynary Scientific Journal" 251 b